



O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOMATIK IBORALARNING TADQIQI

Toliyeva Shoirra Ilhomovna

Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6625522>

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022

Accepted: 02nd June 2022

Online: 08th June 2022

KEY WORDS

frazeologiya, frazema,
frazeologik birlik, maqol,
somatizm, tasviriy ifoda,
hikmatli so'z.

ABSTRACT

Ushbu maqolada tilshunolsikdagi, xususan, o'zbek tilshunolsigidagi somatik frazeologizmlar mavzusiga to'xtalib o'tilgan. Somatik frazemalar, ya'ni, inson tana a'zolari bilan bog'liq bo'lgan iboralarning o'zbek tilshunolsigida tadqiq qilinishi haqida so'z brogan.

Frazeologiya bo'yicha dastlabki umumnazariy, fundamental ilmiy asarlar Sh.Balli va V.V.Vinogradovlar tomonidan yuzaga keldi. Ammo, to 40-50 yillargacha na rus tilshunolsigida va na turkiyshunoslikda frazeologizmlar keng planda o'rganilmagan. 40-50 yillardan keyin esa frazeologizmlarning tadqiqiga sezilarli darajada rus tilshunolsaridan: V.L.Arangeliskiy, A.M.Babkin, A.I.Molotkov, V.P.Jukov, V.M.Mokienko, V.N.Teliya kabilarning turkiyshunoslardan esa S.Kesenbaev, Sh.Rahmatullaev, G.A.Bayramov, G.X.Axunzyanov, Z.G.Uraksin, L.K.Bayramova, M.F.Chernov, B.Yo'ldashev kabi tilshunolslarning ushbu sohada olib borgan ilmiy izlanishlari ta'sir ko'rsatdi.

Ular o'z tadqiqotlarida frazeologizmlarning leksik-grammatik, leksik-semantik tabiati va stilistik xususiyatlarini, ularning paydo bo'lish ma'nbalari va shakllanish xususiyatlari, frazeologik ma'noning o'ziga xos xususiyatlarini, frazeologizmlarning

shakl va ma'no turlariga ko'ra turlari, frazeologizmlarning grammatik tabiati va frazeologizmlarning uslubiy xususiyatlarini atroflicha ochib bergan bo'lsalar, V.V.Vinogradov, A.V.Kunin, L.I.Royzenzon, V.L.Arangeliskiy, A.G.Nazaryan va boshqa tilshunolslarning tadqiqotlari frazeologiyada yangi ilmiy tekshirish sohasiga ya'ni frazeologik shakllanishmasalalariga bag'ishlangan. O'zbekshunoslikda bu masalaning dastlabki tadqiqotchisi sifatida A.Mamatovning ilmiy tadqiqotini misol qilish mumkin.

Jahon tilshunolsligi ilmiga somatizm va somatik frazeologizm atamalarini ilk bor F.Vakk va E.M.Mordkovichlarning tadqiqotlarida qo'llanilgan. Somatik frazeologizmlar va ularning lingvistik tabiatini tadqiq etish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan hamda bu tadqiqotlarda ularning bir til, ba'zilarida ikki-uch til doirasida qiyosiy o'rganilgan. Jumladan, F.Vakkning eston tilidagi



somatik frazeologik birlik(FB)lar qardosh tillar (fin, liv) va qardosh bo'lmagan tillar (nemis, ingliz, latish, rus, shved, frantsuz) bilan qiyoslanib o'rganilgan doktorlik dissertatsiyasi, M.V.Oryol, V.M.Mokienko, R.M.Vayntraublarning rus va slavyan tillaridagi somatik frazeologizmlarga bag'ishlangan ishlari mavjud.

Frazeologik iboralar zamirida ma'lum obraz, konkret hodisa, predmet tasavvuri yotadi. Bunday obrazlilik iboralarining stilistik imkoniyatlarini oshiradi, ularni tilning kuchli ifoda vositalaridan biriga aylantiradi. Shuning uchun yozuvchilar mazkur birliklar zamiridagi obrazlardan atroflicha foydalanishga harakat qilishadi, ayrim hollarda bu obrazlar yordamida yangi iboralar ham yaratadilar. Til badiiy adabiyotning birinchi elementi, materiali, asosiy qurolidir.

Tarkibidagi mustaqil so'zlar o'z leksik ma'nosini va sintaktik aloqasini saqlagan va har bir so'zlovchi tomonidan nutq jarayonida muayyan bir tilning sintaktik qoliplari asosida yangitdan yaratilgan birliklar erkin birikma, tarkibidagi so'zlarning bog'lanishi yaxlitlangan va nutqqa so'zlovchi tomonidan tayyor holda olib kiriluvchi birikmalar turg'un birikmalar hisoblanadi.

So'nggi yillarda o'zbek tilini ilmiy tadqiq etishning qator yo'nalishlari rivojlandi. Bular ichida ayniqsa, "Tilga izchil yondashish, funksional tahlil" yo'nalishlari alohida o'rin tutadi. Til va nutq yaxlit bir hodisaning ikki tomoni sifatida belgilandi. Til hodisalari esa til tizimidagi o'rni, roli, nutqda qo'llanilishi kabi hususiyatlariga qarab tahlil etila boshlandi. Hozirgi bosqichda ishlarning frazeologik majmuasini ilmiy o'rganishiga katta ahamiyat berilmoqda. Shunday tadqiqotlar natijasida frazeologiya

tilshunoslikning alohida yo'nalishi sifatida qaror topdi. Bu holat nutqda keng qo'llab kelinayotgan frazeologizmlarni yanada chuqurroq ilmiy tadqiq etishni, so'zlar tilning barcha leksik-semantik, grammatik sathlarida keng o'rganilayotgan bo'lsada frazeologizmlar bu sathlarida har tomonlama o'rganildi, deya olmaymiz. "Frazeologizmlarning ma'no tarkibi, ma'no taraqqiyoti, hosil bo'lishi yo'llari kabilar o'z tadqiqotchilarini talab qiladi".

Mazkur muammolarni monografik yo'sinda tadqiq etish esa tilshunosligimiz uchun muayyan ahamiyat kasb etadi. Frazeologizmlar tuzilishi, leksik-semantik, funksional-uslubiy va sintaktik vazifalari, shuningdek, o'ziga xos shakllanish shakllariga ega bo'lgan birlikdir. Ular leksikadan yuqori, gapdan quyi sathda turadigan til hodisasi sifatida tilshunoslarning e'tiborini tortib keladi.

Frazeologizmlarning shakllanishi murakkab kechadi. Hozirga qadar frazeologik shakllanish so'z yasashning davomi sifatida tadqiq etilib asosiy e'tibor so'z yasashning xususiyatlariga qaratildi. Natijada frazeologik shakllanishning o'ziga xos vosita va usullari yetarli darajada tadqiq etilmadi. Tilshunosligimizda yaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar o'zbek tili frazeologiyasining shakllanish va taraqqiyotida katta rol o'ynaydi. Xususan, frazeologizmlarning u yoki bu muammoni tadqiq etishga bag'ishlangan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. O'nlab monografiyalar, ilmiy maqolalar, o'quv qo'llanmalari, frazeologik lug'atlar yuzaga keldi.

Frazemalarni lingvomadaniy yo'nalishda tahlil qilganda diaxron yo'nalishga ehtiyoj sezilishi tabiiy hol, albatta. Chunki bu



yo'nalish dunyoning mifologik modeliga kiruvchi madaniy axborotni ochishga xizmat qiladi. Chunki frazemalar semantikasida ifodalangan tasavvurning madaniy ahamiyati tarixan qanday ekanligini bilish muhimdir. Dunyoning mifologik obrazi - bu umumiy tushuncha bo'lib, har bir millat, xalq uni o'zicha tasavvur qiladi. Shunga ko'ra takrorlanmas va har bir millatning o'ziga xos bo'lgan milliy madaniyati vujudga keladi. Bunga turli xil diniy ko'rinishlar, irimlar, bayramlar, marosimlarni kiritish mumkin. Masalan, o'zbek tilida «ko'zning egasi bor» degan frazema mavjud. Insonlar ham, boshqa jonu jonzotlar ham o'z ko'zining egasi. Bu ma'lum. Lekin bu frazema asosida boshqa ma'no yashiringan. Hayotda turli tasodiflar bo'lib turadi. Bexosdan birov otgan tosh yo kesak, yo inson o'zi ishlatib turgan biror bir buyum yuzining bir chekkasiga (yo qoshga, yoki peshona, quloq va hokazolar) tegib ketadi. Hayriyatki, ko'zga kirmaydi. Ana shunday paytda keksalar: «avvalo, xudoning o'zi asrasinu, ko'zning o'z egasi bor-da» deyishadi. «Ko'zning egasi bor» deyilganda uni tangriga, ilohiyotga bog'lashayotganligini sezish qiyin emas. O'zbek xalqida bu hodisada insonning aqli bovar qilmaydigan sir-sehr mavjud deb qaralib, darhol boshko'zdan sadaqa atab yuborishadi. O'zbek tilida «qo'l olmoq» frazemasi mavjud. Qo'l olishning ma'nolari ko'p. Qo'l olib ko'rishish, so'rashish, ko'l olib ish boshlash, qo'l olib murid bo'lish, sig'inish va hokazolar. O'zbek xalqi bu frazemaga ilohiy hurmat bilan munosabatda bo'ladi. Ya'ni qo'l bergan ustoziga, piriga shakkoklik qilish, uning ko'nglini og'ritish, ranjatish katta gunoh sanaladi. Hayotda bu singari shakkok kimsalarning hech qachon biri ikki bo'lmay, ularning kosasi

oqarmaydi. Islom mamlakatlarining barchasida, ya'ni musulmon xalqlarida bir ibora bor. O'g'il farzandning «qo'lini hallollashadi». Unga atab xatna va sunnat to'ylari o'tkaziladi. Bo'lmasa u musulmon bo'lmaydi. Necha asrlardan beri mavjud bu frazema hanuzgacha o'z ma'nosini saqlagan va bu udumga hozirgacha og'ishmay amal qilishadi.

Frazemalar obrazlar sistemasi - etalonlar, milliy-madaniy talqin (interpretasiya)larning predmeti sanaladi. Etalon deyilganda predmetlarining o'zgaruvchan xossalari va xususiyatlari tushuniladi. V.N.Teliyaning fikricha, etalon - bu obrazli shaklda ifodalangan narsa-hodisalarning o'lchovi, darajasidir. Qisqacha qilib aytganda, etalon bu qiyoslash, taqqoslash uchun namuna, asos bo'lish demakdir. Frazemalar semantikasida hayvon va qushlar obrazlari etalon sifatida ko'proq namoyon bo'ladi. Masalan, «kalxat ko'z», «burgut ko'z», «qirg'iy ko'z» kabi frazemalarning 42 hammasida kush ko'zi va inson ko'zi o'rtasidagi o'xshashliklar o'zaro taqqoslanadi. Shu asosida shakllangan frazemalarning barchasida «ko'zi o'tkirlik» semasi mavjud. Ayrim hollarda frazeologik obraz shakllanishi jarayonida so'zkomponentlarining etalonlik vazifasi saqlanadi, shu tufayli ulardagi madaniy ma'no ham o'z kuchini yo'qotmaydi. Qiyoslang: arslon yurak (sheryurak, qoplon yurak)- chumchuq yurak kabi. Ma'lumki, chumchuq o'zbek xalqi mentaliteti uchun qo'rqqoq qushlardan biri sanaladi, buning ustiga uning ko'rinishi, jussasi ham juda kichik. Shu sababli chumchuq yurak deyilganda bizning tasavvurimizda qo'rqqoq, sal narsaga hadiksiraydigan kishi qiyofasi gavdalanadi. Arslon esa hayvonlar shohi, ular orasida eng kuchli jonivordir.



Bu hayvon o'z salobati, vajohati, zo'rligi-yu qudrati bilan turli naql, matal va afsonalar qahramoni bo'lib kelgan. Odamlar orasida to'g'riso'z, adolatli, mard, tanti, jasur va pahlavon kishilarga nisbatan shu sifat qo'llanadi. Hayvonlar obrazini empirik idrok etish jarayoni ularning mifologik tavsifini murakkablashtirishi ham mumkin. Bunday holatda hayvon obrazi arxetip (doimiy, o'zgarmaydigan umumlashma) xususiyatga ega bo'ladi. Arxetip – bu tarixiy obraz bo'lib, unga ko'pincha mifologik obrazlar mos keladi. Masalan, ko'zning o'tkirligi va jismoniy go'zallik ko'pchilik qushlarning arxetipik xarakterida modellasadi: burgut ko'z, qirg'iy burun kabi. Ko'zning kichkinaligiga nisbatan «bitko'z», shakli qo'yning ko'zinikiga o'xshasa «qo'yko'z», mushuknikiga o'xshash ko'zlarga esa «mushuksimon ko'z» kabi frazemalar qo'llaniladi.

Ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiri luvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi.

Barqaror birikmalarining eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kirishlik.
2. Ma'no butunligi.
3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi. Barqaror birikmalardan o'rinli foydalanish nutq go'zalligini ta'minlaydi, shuning uchun ular nutqimiz ko'rki hisoblanadi. Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi tarkibiy qismlari-ning barqarorligi belgisiga ko'ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma'no butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir. Shunga ko'ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Tasviriy ifodalar.
2. Iboralar (frazеologizmlar).
3. Maqol va ma'tallar.
4. Hikmatli so'zlar (aforizmlar)

Iboralardan nutqda unumli foydalanish jarayonida tafakkur, hayol, xotira va so'z, bilish qobiliyati rivojlantiriladi, chunki aytilgan fikrni chuqur tushunish imkoniyatini beradi.

O'zbek tili kontekstlarida esa hozirgi kunda, frazeologizmlar frazeologik chatishma (ibora), frazeologik birlik, frazeologik birikma kabi atamaları bilan yuritiladi. Turkiyshunoslikda, xususan, o'zbekshunoslikda frazeologiya sistem ravishda, hanuzgacha to'la o'rganib chiqilgan deya olmaymiz.

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni uslubiy o'rganish ham yo'lga qo'yilganligini ta'kidlash lozim. O'zbek yozuvchi va shoirlari asarlari frazeologizmlarining uslubiy qo'llanish xususiyatlari ko'pgina nomzodlik dissertatsiyalarida o'z aksini topgan.

Xususan, M.M. Rustamova o'z maqolasida italyan va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarda somatizmlarning tarkibiy qism sifatida leksik bog'lanishini ko'rib chiqib, somatizmlar ishtirok etgan italyan frazeologik birliklarni tahlil etadi va ularni o'zbek tilidagi muqobillari bilan solishtiradi. Tahlil davomida o'xshashliklar qayd etilib, o'ziga xos jihatlarga alohida to'xtalinadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, frazeologik birliklarning o'rnashib qolish xususiyati tasodifiydir va aynan shu sababli ular variantlanish xususiyatiga ham egadir. Hamma tilshunosligida bo'lgani kabi, o'zbek tilshunosligida ham frazeologiyani keng va tor tushunish davom etmoqda.



References:

1. Xojiyev A, Begmatov E., "Hozirgi o'zbek adabiy tili va uni o'rganishning aktual masalalari" O'zbek tili va adabiyoti 1992.
2. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent 1985-yil.
3. Iskandarova Sh.M. O'zbek tili leksikasining mazmuniy maydon sifatida o'rganish. Filologiya fanlari doktori diss.Avtoref. Toshkent, 1999.
4. Ne'matova G.X. "O'zbek tilida o'simlik nomlari leksemalari: tuzilishi va badiiy qo'llanish: Filologiya fanlari nomzodi diss. Avtoref, 1998.